

G'azal mulkining sultoni

She'riyat mulkining sultoni, insonparvarlik, odob-axloq va ma'naviyat sohasida ham ibrat namunasi bo'lgan Alisher Navoiy bobomiz tavalludining 577 yilligiga bag'ishlab Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 3-TTJ da "Alisher Navoiy ma'naviyatimiz quyoshi" mavzusidagi ma'naviy-ma'rifiy davra suhbatini tashkil qilindi.

Unda "Alisher Navoiy nomli O'zbekiston Davlat muzeyi" katta ilmiy xodimi filologiya fanlari nomzodi dotsent Jo'raboyev Otabek Rustambek o'g'li hamda "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" kafedrasini mudiri, texnika fanlari nomzodi, dotsent Rixsiboyev Ulug'bek Temurovich, assistent Urishev Adham Ergashevich, "Geodeziya va geoinformatika" kafedrasini o'qituvchilari: Jurayev Abdulla va Abdusamatov Otabeklar hamda 2-TTJ tarbiyachisi-pedagogi Dilorom Sagdullayeva ishtirokida talabalar bilan Alisher Navoiy g'azal va ruboylaridan ijro etildi.

Davra suhbatida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarni berishdi. Tadbir yakunida "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" kafedra mudiri Rizxsiboyev Ulug'bek Temurovich so'zga chiqib, Alisher Navoiy buyuk siymo va uning asarlarini o'qib barchamiz yuragimizdan his qilishimizni ta'kidladi. Shu jumladan, Abdulla Jurayev ham so'zga chiqib 3-TTJda tadbirlar shiddat bilan olib borilayotgani va faol ishtirokchilarga, tarbiyachisi-pedagog Aziza Xaitova hamda insitut "Yoshlar ittifoqi" boshlang'ich tashkiloti faollariga tadbirni ko'tarinki ruhda tayyorlagani uchun minnatdorchilik bildirishdi.



3-TTJ Talabalar kengashi sardori Jahongir Saidahmedov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov